

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXEOLOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Usarov U. A.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası доценти., PhD

O‘zbekiston Milliy universiteti

umidjon.usarov@mail.ru

**XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING
TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK
MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI
(Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi mustamlakachilik hukmronligining dastlabki yillarida ya’ni XIX asrning 60–70-yillarida olib borgan agrar siyosati, xususan, o‘lkadagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlari borasidagi siyosati ochib berilgan. Unda o‘lkadagi imperiya hukumati rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi xukumatining bu vaqtdan keyingi davrda o‘lkadagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini qay tartibda olib borishi va uni amalga oshirish borasidagi huquqiy-meyoriy hujjatlarini yaratish bo‘yicha olib borgan faoliyatlari arxiv materiallari, davr manbalari hamda turli davr tadqiqotlari asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Turkiston, Rossiya imperiyasi, rasmiy amaldorlar, ma’muriyat, ishchi kommissiyalar, agrar siyosat, yer egaligi, xususiy yerlar, mulk, vaqf, mulkchilik, nizom.

KIRISH

XIX asrning 60–70-yillarida Markaziy Osiyo mintaqasining Rossiya imperiyasi hukmronligi o‘rnatilgan hududlarida mustamlaka ma’muriyati siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni o‘z manfaatlariga bo‘ysundirish bilan birga, o‘lkadagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlariga ham alohida e’tibor qaratdi. Hukumatning o‘lkadagi agrar siyosatining asosiy maqsadi – imperiya to‘qimachilik sanoatini paxta xomashyosiga bo‘lgan talabini qondirish edi. Shu sababli o‘lka bosib olingan dastlabki yillardan Farg‘ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida yer egaligi, irrigatsiya, melioratsiya ishlariga oid bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Turkiston o‘lkasida paxtachilikni rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan Rossiya imperiyasi yangi bosib olingan hududlarda yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini o‘rganishga jiddiy e’tibor

qarata boshladi. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman bu borada o'ziga berilgan "o'lka ustidan boshqaruvni mahalliy sharoitga muvofiq o'zgartirish" vakolatlaridan foydalanib, qator tadbirlarni amalga oshirdi[1, – 90 b.]. 1867–1881-yillar davomida yerga egalik masalasida bir necha yangi loyihalarni ishlab chiqishga boshchilik qilib, ba'zi holatlarda esa bu sohada tajribalar o'tkazishga ham ruxsat bergan[8, – C. 14.]. Ayni paytda mahalliy qishloq xo'jaligida og'ir qo'l mehnati talab qilinardi, dehqonlarda zamonaviy texnika, asbob-uskunalar deyarli yo'q edi. Tadqiqotchi A.P.Savitskiyning yozishicha, chorikorlar, mardikorlarning ijarador yeri egalari bilan munosabatlari hamma vaqt ham adolatli bo'lmagan[8, – C. 36.]. Bu vaziyatdan foydalangan imperiya hukumati vakillari o'lkadagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini o'z manfaatiga bo'ysundirishga harakat qilgan.

K.P. Kaufman Markaziy Osiyodagi mavjud yer egaligi tuzilishini o'rganish va yangi yer egaligi loyihalarini ishlab chiqish, umumiy va aniq ma'lumotlar to'plash maqsadida qator mutaxassislarni Turkistonga taklif etdi. Taniqli sharqshunoslar bilan aloqa o'rnatib, ularni o'lkaga doimiy ishga taklif qildi. Masalan, 1868-yilning boshida mahalliy aholi va ko'chmanchilarning yer huquqlarini o'rganish hamda aniqlash, undan tashqari, hukumat yer va mulk egaligi masalasida qaysi yer huquqiga rioya qilishi kerakligini hal qilish maqsadida, Harbiy okrug kengashi a'zosi bo'lgan polkovnik M.N. Nikolayevga "kelajakda ma'muriy faoliyatni yuritish uchun o'lkada yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini o'rganib chiqish" bo'yicha topshiriqlar berildi. Unga ko'ra, polkovnik M.N. Nikolayev mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholi orasida mavjud yer egaligi huquqini aniqlash, shundan kelib chiqqan holda hukumat uchun qaysi tartiblardan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatib berishi lozim edi[15, – C. 2.]. Bundan tashqari, 1869-yilning may oyida Turkiston o'troq aholisining yer egaligi huquqlarini o'rganish maqsadida general shtab shtabs-kapitani V.Komarov kutubxona va ilmiy muassasalarda ishlash uchun Peterburgga jo'natildi[5, – C. 41.].

Turkiston o'lkasida imperiya hukumatining mahalliy aholi bilan yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini tartibga solish bo'yicha o'lkada faoliyat yuritayotgan rasmiy amaldorlar polkovnik M.N. Nikolayev, shtabs-kapitan V.Komarov va sharqshunos A.L.Kunlar o'ziga berilgan topshiriqlar ustida ishlab, 1869-yil 11-avgustda Turkiston general-gubernatoriga o'lkada yer egaligining "nazariy va huquqiy" taraflariga aniqlik kiritilgan ma'lumotlarni topshirdi. M.N.Nikolayev o'z hisobotida Turkiston aholisining yerga bo'lgan huquqini uch turga: 1) ko'chmanchi xalqlarning yerga bo'lgan huquqi, 2) o'troq aholi yerga bo'lgan huquqi va 3) rus millatiga mansub aholining yerga oid huquqlariga bo'ldi[8, – C. 18.]. Muallif ko'chmanchi aholining yerga bo'lgan huquqlarini Sibir qirg'izlari, Stavropol guberniyasi ko'chmanchilari, Astraxan va Stavropol guberniyalaridagi

qalmlqlarning imperiyada oʻrnatilgan huquqlaridan kelib chiqqan holda tahlil qildi. Hisobotlarda koʻchmanchilar qonunan mustahkamlangan holda hech yerda shaxsiy yerga ega boʻlmaganliklari, ularga yer meros qolmasligi taʼkidlab oʻtildi. Ular faqat davlat tomonidan koʻrsatilgan yerlarda chorva boqishlari, ekin ekishlari mumkin boʻlgan. Shuningdek, ular yerni sotish, shartnoma tuzish, almashtirishga huquqiga ega boʻlmaganlar[8, – C. 18.].

Polkovnik M.N.Nikolayev oʻtroq aholi masalasiga alohida yondashib, avvalo, yerga egalik turlari va ulardan olingan soliqlar hamda mahalliy aholining yer egaligiga oid boʻlgan munosabati imperiyadagi boshqa musulmonlarnikidan farq qilishi haqida maʼlumotlar toʻpladi[11]. Polkovnik M.N. Nikolayev tayyorlagan xulosa jami 12 banddan iborat boʻlib, hisobotda imperiya tarkibiga oʻtgan barcha yerlarni qanday boʻlishidan qatʼiy nazar hammasi davlat mulki boʻlishi lozimligini taʼkidlaydi. Faqatgina “mulk yerlari” xususiy mulk hisoblanishini, lekin ularda avlodlardan oʻtib kelganligini tasdiqlovchi hujjat boʻlishi lozimligini qayd etadi[13, – 76 b.]. Oʻtroq aholining yer egaligini oʻrganib, muallif mamlakatning topografik xususiyatlari, yerga dastlabki ishlov berish, uni taqsimlash masalasida Rossiya imperiyasi hududlarida oʻtroq yashayotgan musulmonlarning yer egaligi munosabatlaridan farq qilishini yozadi[8, – C. 19.].

K.P.Kaufman bu hisobotlardan qoniqmay hamda general-gubernatorlik devonxonasi kengashining maslahatiga quloq solib, 1869-yil 6-oktabrda 67-sonli buyruq bilan mahalliy maʼmurlar va aholi vakillaridan iborat yangi komissiya tarkibini tuzdi. Ushbu buyruqqa koʻra, Turkiston general-gubernatorligining devonxonasi boshligʻi A.I.Gomzin yangi tuzilgan komissiyaga rais etib tayinlandi. Komissiya tarkibiga Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshligʻi, polkovnik Eyler, Yettisuv viloyati boshqarmasi boshligʻi Ozerov, Jizzax uyezdi boshligʻi Nosovich, Avliyoota uyezdi boshligʻi Medinskiy, Chimkent uyezdi boshligʻi yordamchisi Gerasimov, devonxona ish yurituvchisi Savenkovlar aʼzo qilib kiritildi. Komissiyaga “oʻlkada yer egaligi munosabatlarini muhokama etish va muammolarni hal etish” topshirigʻi berildi. Mazkur komissiya oʻlkadagi yer egaligi munosabatlarini oʻrgandi va A.I.Gomzin uchta maʼruzadan iborat maʼlumotnoma tayyorladi[8, – C. 16.].

General-mayor A.I.Gomzin tomonidan tayyorlangan “Davlatning yerga boʻlgan huquqi” deb nomlangan birinchi maʼruzada koʻchmanchi aholi hamda oʻtroq aholi yashaydigan yerlarga nisbatan boʻlgan huquq haqida maʼruza qilib, unda davlat yerning haqiqiy egasi ekanligi taʼkidlagan[8, – C. 30.]. Maʼruzada yana asosiy toʻxtalib oʻtilgan masalalardan biri oʻtroq aholi yashaydigan yerlar boʻldi. Bu kabi yerlarga egalik qilish huquqi, birinchidan, davlatdan yerlarni pul hisobida sotib olishi kerak boʻlgan, keyin esa, hosilning $\frac{2}{3}$ qismini davlat gʻaznasiga topshirishi va $\frac{1}{3}$ qismini esa shaxsiy mulk qilib olishi mumkin edi. Bu

yerlardan xiroj va tanob kabi soliqlar olinmagan. Hisobotda keltirilishicha, xon davlat yerini urush vaqtida yoki davlat xazinasini bo'shab qolganda sotish huquqiga ega bo'lgan. Oldi-sotdi qonuniy bo'lishi uchun 4 ta qozi tomonidan tasdiqlanishi shart bo'lgan. Bu ma'lumotlardan so'ng komissiya "mulki hur" yerlari xususiy bo'lishi, qolgan barcha yerlar esa davlatga qarashli yerlar hisoblanishi, ikkinchidan, xiroj va ushr kabi soliqlar to'laydigan yerlar davlatniki degan xulosaga keldi[8, – C. 31.].

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, imperiyaning rasmiy ma'murlari o'lkada yer egaligi munosabatlarig ichida vaqf yer egaligi va mulklariga alohida e'tibor qaratib, ularni doimiy nazorat ostida ushlashga harakat qilgan. Bu davrgacha o'lkada turli yer maydonlari, hammomlar, saroylar, do'konlar, tegirmonlar va xatto ariqlar ham vaqf mulki qilib berilishi mumkin bo'lgan. Shuning uchun imperiya ma'murlari o'lkadagi biror masjid yoki madrasaga ehson qilingan har qanday mulk vaqf mulqi deb atalganligi"[7, – C. 335.] to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga harakat qilgan. Shuningdek, komissiya o'z oldiga qo'yilgan vazifa bo'yicha ma'lumot to'plash maqsadida Toshkent shahri va Toshkent uyezdi boshliqlariga bir oy muddat ichida mahalliy aholidan o'z ma'muriyatlari orqali vaqf, davlat va mulk yerlariga tegishli bo'lgan hujjatlarning asli yoki guvohlik berilib tasdiqlangan nusxalarini yig'ib olish to'g'risida topshiriq berdi[2, – C. 21.]. Tadqiqotchi O'.Sultonovning ta'kidlashicha, XIX asrning 60–80-yillari o'rtalarida Toshkentda vaqf tashkil qilish avvalgi davrga nisbatan bir necha barobar ortiq bo'lgan[9, – 167 b.].

Komissiya a'zolarining mahalliy tilni bilmasligi, shariat qonun-qoidalarini anglay olmasligi o'zlariga berilgan vazifalarni to'liq bajarishlariga imkon bermadi. Tabiiyki, mustamlaka manfaatlariga mos keladigan hisobotga erishmagan general-gubernator K.P.Kaufman komissiya tarkibiga rus va mahalliy ma'muriyat xodimlaridan, xalq vakillaridan, shuningdek, har bir uyezddan yana 2 nafar kishini komissiya a'zolariga kiritdi[2, – C. 21]. Bu komissiya ham o'z davrida yillar davomida shakllanib, murakkablashib kelgan vaqf mulk egaligi, vaqf xo'jaligidan tushadigan daromad hamda yer egaligi munosabatlari haqidagi ayrim masalalarni to'liq ochib berolmadi. Komissiya o'z hisobotida "vaqf mulkiga shariat qonunlariga binoan faqat davlat egalik qilib, ular xiroj va tanob kabi soliqlardan ozod etilgan, vaqf yerlari xususiy mulk bo'lmasdan, amir, xon yoki imomlar boshqarishi mumkin bo'lgan masjid, madrasa hamda xonaqohlarga tegishli davlat yerlaridir"[8, – C. 32.], degan xulosaga keldi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Turkiston o'lkasida yer xo'jaligida vaqf masalasi katta masala edi. Islom dini vakillarining vasiy mulkiga aylangan vaqf yerlari, aslida, xon yoki amirning ruxsati bilan "mulkdorlar" yerlaridan inoyat qilib berilar edi. Bunday yer ajratilayotgan vaqtda yoziladigan vaqfnomani xon yoki

amir tomonidan tasdiqlardi. Undan keyin bo'ladigan xon yoki amirlar ham bu vaqfnomani tasdiqlab borardi[14, – 66 b.]. Bu o'ziga xos murakkab jarayon bo'lganligi sababli komissiya 1869-yilda mahalliy aholi tomonidan taqdim etilgan yer egaligiga oid hujjatlarni o'rganib, faqat 1874-yil 1-iyundagina harbiy gubernatorga taqdim etdi. Komissiya tomonidan ko'rib chiqilgan va aholiga qaytarilgan hujjatlar quyidagicha bo'ldi: Toshkent uyezdidan 1219 ta, Xo'jand uyezdidan 575 ta, Turkiston uyezdidan 447 ta, Qurama uyezdidan 109 ta, Chimkent uyezdidan 13 ta Toshkent shahridan 1 ta hujjat. Hammasi bo'lib 2364 ta hujjat qaytarildi[2, – C. 21-22.]. Aholining ayrim qismi 1882-yilda ham eski komissiyaga hujjatlarni taqdim qilishgan. Ammo ular ko'rilmay qolib ketgan[2, – C. 22.].

General-mayor A.I. Gomzin tomonidan tayyorlangan ikkinchi ma'ruza “Aholining yer egaligi huquqlari” deb nomlanib, ma'ruzada yer egaligi va undan foydalanishning musulmon-shariat qonun-qoidalaridan kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari keltirilgan. Komissiya yerga egalik huquqini ishlov berilmagan yerga ishlov berish orqali yoki yerni zo'rlik bilan bosib olish, egallab olish orqali ikki asosiy omilga ajratdi.

Ko'plab manbalarda keltirilishicha, Turkiston aholisining asosiy qismi, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Jumladan, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida aholining 75 foizi dehqonchilik bilan 5 foizdan – 9 foizgacha bo'lgan qismi chorvachilik bilan, Sirdaryo va Kaspiyorti viloyatlarida salkam yarmi dehqonchilik, yana 30 foizi chorvachilik bilan, Yettisuv viloyatida dehqonchilik va chorvachilik teng barobar rivojlangan[4, – C. 86-87.]. Bu yerlarni o'rganish bilan birga komissiya xulosalarida bosib olingan yerlar haqida ham ma'lumotlar berildi. Umuman, komissiya o'z xulosalarida o'lkadagi aholining yer egaligi huquqlari shariat asosida ta'minganligi va ular uchta: hurri xolis, mamluk hamda amlok yerlaridan iborat bo'lganligi qayd etilgan. Shuningdek, o'lkada yerdan foydalanishning xususiy va jamoaviy shakli borligi alohida ko'rsatib o'tilgan[8, – C. 41.]. Bu yerlar butunligicha sug'orma dehqonchilikka asoslangan bo'lib, dehqonlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekib kelgan. Rus sharqshunos va turli soha mutaxassislari manbalarida o'lkadagi bunday yerlar “yerlar yozda ikki marotaba hosil beradi”[3, – C. 139.] deb ham ta'riflangan.

Komissiya o'zining yakuniy xulosalarini uchinchi ma'ruzada berdi. Unda o'lkada shariat asosida bo'lingan yer egaligi to'rt turdan, xususan: 1) alohida shaxs yoki jamoaga qarashli bo'lgan mamlakat yerlari, 2) davlat tomonidan alohida shaxsga yoki jamoaga berilgan mamluk yerlari, 3) o'zlashtirilmagan, butunlay davlatga qarashli bo'lgan mavat (o'lik yerlar – U.U.) yerlari, 4) daromadi kimgadir yoki qayergadir sarflanadigan vaqf yerlaridan iboratligi keltirilgan[8, – C. 42.]. A. I. Gomzin boshchiligidagi bu komissiya xulosalarida o'sha davrga xos bo'lgan

o'lkadagi notinch siyosiy vaziyat kichik yerga ega bo'lgan aholiga ta'sir etganligi, ularning yerdan ajrab, batraklar sonini to'ldirib borishiga hamda katta yer egaligining yo'qligiga olib kelganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Rossiya imperiyasi dastlabki davrda ya'ni 1865-yilda Turkiston viloyati tuzilgach, Orenburg va G'arbiy Sibir aholisining hayoti va ko'chmanchilar turmushini o'rganish maqsadida qozoq dashtlari va Turkistonga "Dasht komissiyasi" yuborilgan bo'lib, bu komissiya xulosalari Turkiston general-gubernatorligining o'lkani boshqarish bo'yicha ishlab chiqqan dastlabki Nizom loyihasining yaratilishiga asos bo'lgan edi. Bu xulosalar yangi tuzilgan Turkiston general-gubernatorligi va birinchi general-gubernator K.P.Kaufmanga tanishib chiqish uchun topshirilgan bo'lib, ularda o'lkadagi yer-suv munosabatlariga oid ma'lumotlar yo'q edi.

1868-yil 21-oktabrda Ministrlar Kabineti Dasht Nizomidan tajriba sifatida foydalanishning ikki yillik muddatini belgiladi[6, – C. 4.]. Shu vaqt oralig'ida Turkiston general-gubernatorligiga Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomini ishlab chiqish topshirig'ini berdi. 1871-yilda K.P.Kaufman Harbiy vazirlikka Toshkentda tayyorlangan Nizom loyihasini topshirdi. Bu loyihaga harbiy vazirlik tomonidan juda ko'plab e'tirozlar bildirilib, kamchiliklari ko'rsatilgan rad javobi kelgach, general-gubernator K.P. Kaufman loyiha uchun turli qismlari ustida qayta ishlash uchun alohida komissiyalar tuzish maqsadida 1872-yil 27-yanvarda Zarafshon okrugi boshlig'i general-mayor A.K.Abramovga 659-raqamli xat yo'lladi. Unda Harbiy vazir D.A.Milyutin bilan kelishilgan holda Nizom loyihasini "mahalliy sharoitlardan kelib chiqib chuqur o'rgangan holda qayta ishlab" keyin qonun doirasida tasdiqlash 1872-yil kuziga qoldirilganligini bildirdi. Shundan so'ng, Nizomning har bir bo'limi ustida ishlash uchun komissiyalar tuzildi. U komissiyalardan biriga general A.K.Abramov rais sifatida tasdiqlandi. Komissiya tarkibiga polkovnik Frederiks, Nosovich, podpolkovnik Chaykovskiy va mayor Chaykovskiylar kiritildi. Komissiya Nizomning asosiy bo'limlaridan biri yer-suv masalasini ko'chmanchi, o'troq va ruslar yashaydigan yerlardagi holatlar bilan bog'lagan holda puxta o'rganib, o'z xulosasini berishi kerak edi. Ishni yanada puxta qilish maqsadida general-mayor A.K.Abramovga K.P.Kaufman topshirig'i bilan M.N. Nikolayev va A.I.Gomzinlar tomonidan berilgan avvalgi xulosalar ham topshirildi.

Komissiya olti oy davomida ishlab, ma'lumotlarni aniqlashtirish va jamlash maqsadida o'lkada qishloqlarida yurib, u yerdagi ahvol bilan tanishdi[8, – C. 49.]. 1873-yilning o'zida general A.K.Abramov boshchiligidagi komissiya faoliyatiga oid xulosalarni Turkiston general-gubernatorligiga topshirib, o'z faoliyatini tugatdi.

Bu vaqtga kelib o'lkada siyosiy vaziyat og'ir bo'lib, xonliklarga qarshi harbiy harakatlar davom etib kelayotgan edi. Shunday bo'lsa-da, yer egaligi munosabatlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lib kelgan imperiya ma'muriyati o'lkadagi siyosiy vaziyatdan, ya'ni 1873-yilda Xiva xonligiga boshlangan yurish, Buxoro amirligining "betaraf"ligining tan olinishi kabi jarayonlardan foydalangan holda yana yangi komissiya tuzish haqida buyruq berdi. Bu ishlarga ham general-gubernator K.P. Kaufman bosh bo'ldi. Uning raisligida tuzilgan bu komissiyaga general-leytenant G.A.Kolpakovskiy, general-mayor N.N.Golovachev, general-mayor A.I.Gomzin, general-mayor A.K.Abramov, podpolkovnik S.I.Nosovich, ish yurituvchi sifatida P.I.Xomutovlar kiritildi. Komissiya general-mayor A.K.Abramov takliflarini inobatga olib, o'lkani boshqarish Nizomining bandlariga o'zgartirishlar kiritdi. Natijada, 1871–1873-yillar ishlab chiqilgan va tasdiqlash uchun taqdim etilgan nizomlarda mahalliy yirik yer egalari manfaatlari inobatga olinib, ularga berilgan qator imtiyozlar ham saqlab qolindi. Rossiya imperiyasi marikazida hukumat vakillari Moliya vaziri M.X.Reytern, Davlat nazorati hamda Tashqi ishlar vazirligi bu loyihaaning mana shu qismlari to'liq ishlanmaganligini, bu choralar xatarli ekanligini, loyiha oxirigacha ishlanmaganligini bildirib qaytardi[6, – C. 345.]. Biroq, 1873-yilda K.P.Kaufman tomonidan ishlab chiqilgan nizom tasdiqlanmagan bo'lsa-da, amalda ulardan Farg'ona viloyati va Amudaryo bo'limlarida 1886-yilga qadar foydalanib kelindi[10, – 155 b.].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Rossiya imperiyasi XIX asrning 60–70-yillarida Markziy Osiyoning o'z mustamlakachilik hukmronligi o'rnatgan hududlarida imperiya manfaatlari to'liq ifoda etgan siyosatni amalga oshirdi. Albatta o'lkadagi barcha siyosiy-ma'muriy va iqtisodiy munosabatlarini Rossiya imperiyasi markaziy hududlarida joylashgan sanoat korxonalarini xomashyo manbai bilan ta'minlash hamda imperiya hazinasini to'ldirish maqsadida olib borgan. Bu vaqtda Turkiston o'lkasi aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Imperiya hukumatining tashqaridan keladigan paxtaga ehtiyoji katta ekanligi sababli Turkistonda egallab olingan hududlarda agrar siyosatini yer egaligi munosabatlarini o'z manfaatini keoib chiqqan xolda boshqarishga harakat qilgan. Shu maqsadda o'lkadagi imperiya rasmiy ma'muriyati amaldorlari va ishchi komissiyalar faoliyatini o'lkadagi yer egaligini Rossiya imperiyasi qonunlariga mos xolda tartiblash uchun nizom ishlab chiqishga harakat qilgan. Lekin bu choralar imperiya hukumati rasmiy amaldorlarini mahalliy mirshikor dehqonlari bilan hisoblashishga ham majbur etgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 90 б.
2. Влаговъещенский В.Ц. Къ вопросу о вакуфахъ в Сырь-Дарьинской области // Сборникъ матеріаловъ для статистики Сырь-Дарьинской области. Изд. Сырь-Дарьинскаго областного Статистическаго комитета. Под ред. секретаря комитета И.И. Гейера. – Ташкент: Типо-литографія С.И. Лахтина. 1891. – С. 21-22.
3. Маев Н. Туркестанская выставка 1890 г. Путеводитель по выставке и её отделах. – Ташкент, 1890. – С. 139.
4. Махмудова Н. Развитие административного управления, социально-экономических и культурных процессов в колониальном Туркестане в начале XX века. – Ташкент: Фан, 2015. – С. 86-87.
5. Мухамедов Ш.В. Россия и Средняя Азия: страницы истории, личности, мнения. – Ташкент: Baktoria press, 2020. – С. 41.
6. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Ф.К. Гирса. –СПб., 1882. – С. 4-345.
7. Ростиславов М.Н. Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае. – СПб., 1876. – С. 335.
8. Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867–1886 гг.). – Ташкент, 1963. – С. 14-49.
9. Султонов Ў.А. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислохотлар ва муаммолар (XVI–XX аср бошларига оид тарихий ҳужжатлар асосида): тарих фанл. бўй. фалс. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2016. – 167 б.
10. Тўхтабеков К.А. Чор Россияси мустамлакачилиги шароитида Туркистонда ер эгалиги ва унинг ўрганилиш тарихи // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – 155 б.
11. ЎзМА, И-1-фонд, 14-рўйхат, 9а-йиғмажилд, 16-варақ.
12. ЎзМА, И-1-фонд, 14-рўйхат, 9-йиғмажилд, 20-варақ.
13. Ўроқов Д.Ж. Туркистонда Россия империяси маъмуриятининг расмий хисоботлари – тарихий манба сифатида (XIX аср охири–XX аср бошлари): Тарих фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 76 б.
14. Шукурова Л. Туркистонда чоризм ҳукмронлигининг дастлабки йилларида ер-солиқ системаси тарихидан // Научные работы и сообщение. Кн. №1. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1960. – 66 б.
15. Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.). – Ташкент, 1969. – С. 2.

Усаров У. А.

PhD., доцент кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

umidjon.usarov@mail.ru

**ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В СФЕРЕ ЗЕМЛЕВЛАДЕНИЯ
И СОБСТВЕННОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ
В 60–70-Х ГОДАХ XIX ВЕКА**

**(на примере деятельности официальных чиновников и представителей
рабочих комиссий)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается аграрная политика, проводимая Российской империей в Туркестанском крае в первые годы колониального правления, а именно в 1860–1870-х годах. Особое внимание уделяется политике империи в отношении землевладения и имущественных отношений в регионе. Исследуются действия официальных представителей имперского правительства и членов рабочих комиссий, которым было поручено разработать правовую и нормативную базу для регулирования землевладения и имущественных отношений в Туркестане. Анализ основан на архивных материалах, источниках того времени и научных исследованиях различных периодов.

Ключевые слова: Центральная Азия, Туркестан, Российская империя, официальные представители, администрация, рабочие комиссии, аграрная политика, землевладение, частные земли, собственность, вакуф, владение, регулирование.

Usarov U. A.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National university of Uzbekistan

umidjon.usarov@mail.ru

**THE POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE ON LAND OWNERSHIP
AND PROPERTY RELATIONS IN THE TURKESTAN REGION IN THE
60s–70s OF THE XIX Century**

**(Based on the Activities of Official Authorities and Working Commission
Representatives)**

ABSTRACT

This article explores the agrarian policy pursued by the Russian Empire in the Turkestan region during the early years of colonial rule, specifically in the 1860s–1870s. It focuses on the Empire's policy regarding land ownership and property

relations in the region. The study analyzes the activities of official representatives of the imperial government and members of working commissions, who were tasked with developing the legal and regulatory framework for managing land ownership and property relations in Turkestan. The analysis is based on archival materials, contemporary sources, and scholarly research from different periods.

Keywords: Central Asia, Turkestan, Russian Empire, official representatives, administration, working commissions, agrarian policy, land ownership, private lands, property, waqf, ownership, regulation.